

KINO SOHASINING JAMIYATGA TASIRI SOTSIOLOGIK TAHLILI

X.U. Samatov

Imiy rahbar.

Ashurov Elshodbek

Toshkent Axborot Texnologiyasi Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniring fakulteti DI21-11-guruh talabasi.

Telefon raqam: +998904780910

Elektron pochta manzili: elshodashurov807@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236246>

Annotatsiya. Kino san'ati jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning ta'siri turli yo'nalishlarda sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Ushbu maqola kinoning jamiyatga ta'sirini madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qiladi. Kino orqali tarqatiladigan hikoyalar va tasvirlar insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning qadriyatlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kino sanoati iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi va madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Maqolada kino san'atining ijobiy va salbiy ta'sirlari o'rganilib, kino yaratuvchilari va tomoshabinlar oldidagi ijtimoiy mas'uliyat masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola kino san'ati va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqurroq anglashga yordam beradi va bu sohaga oid muhim fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Kino, animatsion film, reklama, psixologiya, mafkura, ong, multifilm, Netflix, Disney, Pixar.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE IMPACT OF THE FILM INDUSTRY ON SOCIETY

Abstract. Cinematography has become an integral part of society's life, and its influence is significantly manifested in various directions. This article analyzes the impact of cinema on society, taking into account cultural, social and economic aspects. Stories and images spread through cinema expand people's worldview, influence their values and behavior. Also, the film industry contributes to economic growth and enhances cultural exchange. The article examines the positive and negative effects of film art, and considers the issues of social responsibility towards film makers and viewers. The article contributes to a deeper understanding of the interrelationships between the art of cinema and society and provides important insights into the field.

Keywords: Cinema, animated film, advertisement, psychology, ideology, mind, cartoon, Netflix, Disney, Pixar.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КИНОИНДУСТРИИ НА ОБЩЕСТВО

Аннотация. Кинематография стала неотъемлемой частью жизни общества, и ее влияние существенно проявляется в различных направлениях. В данной статье анализируется влияние кино на общество с учетом культурных, социальных и экономических аспектов. Рассказы и образы, распространяемые посредством кинематографа, расширяют мировоззрение людей, влияют на их ценности и поведение. Кроме того, киноиндустрия способствует экономическому росту и расширяет культурный обмен. В статье рассматриваются положительные и отрицательные

эффекты киноискусства, а также рассматриваются вопросы социальной ответственности перед кинематографистами и зрителями. Статья способствует более глубокому пониманию взаимосвязи между искусством кино и обществом и дает важное представление об этой области.

Ключевые слова: Кино, анимационный фильм, реклама, психология, идеология, разум, мультфильм, Netflix, Disney, Pixar.

Bugungi murakkab jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda ma'naviyat qaysidir ma'noda ortda qolayotgandek bo'lmoqda. Kelajak avlodimizning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralardan saqlash, himoya qilishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida globallashuv tobora avj olib boryotgan zamonaviy dunyoda bo'layotgan mafkuralarga baho berar ekan, "... bugungi zamonaviy mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega " va xavfliroq ekanligini takidlab o'tgan. Inson miyasida bo'shliq bo'lmaydi, bo'shliq paydo bo'ldimi albatta to'ldiriladi. Farzandlarimiz sevib tomosha qilayotgan kino va multifilmlar uning ongiga, dunyo qarashiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Inson kino tomosha qilib ajoyib hissiyotlarga ega bo'lishi mumkin. Kino bu siz tomosha qilib madaniy hordiq oladigan san'atdir. Ba'zida filmlar sizning qiziqishingizni, orzularingizni, kasbingizni ham tanlashda turtki bo'lishi mumkin. Sizga notanish bo'lgan millatlarni o'rganishga, dunyoni ko'rishga yordam beradi. Filmlar eng yaxshi reklama vositasi. Gollivud suratga olayotgan filmlar orqasidan har yili millionlab turistlar Amerikaga tashrif buyuradi. Gollivud kinolari deyarli dunyoning barcha joylarida namoyish etiladi va uni ko'rgan har qanday inson Amerikaga borish istagi to'g'riladi. Amerikaga borish bo'lsa mayli, ularning madaniyatini ham qabul qila boshlaydi.

Bu maqolada asosan Amerika kinolarining muaffaqiyati va ular targ'ib etadigan mafkuralar haqida gap boradi. Amerika kinolari global bozorda kata ahamiyatga ega. Ularning yuqori sifatli filmlari dunyo bo'ylab millionlar darajada sotiladi va bu kino sanoatining moliyaviy o'sishi va ishtirokchisiga aylantiradi. Bir nechta filmlar o'z mahsulotlarini olib kelgan joylarda turistlar sonini oshirishi mumkin. Masalan, filmlarda ko'rsatilgan qadimiy joylar, shaharlar yoki mamlakatlar turistlar uchun qiziqtirish va uni sayohatga chaqirish mumkin. Katta budjetli filmlar ishlab chiqarish uchun ko'p miqdorda moliyaviy mablag'lar sarflanadi. Bu esa ishlab chiqarish, o'qitish, turizm va boshqa sohalar uchun yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi. Amerika kinolari sanoati o'zaro aloqalar va texnologiyalar o'rtasida yangi innovatsiyalarni olib kelishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu esa sanoatning rivojlanishi va o'zining o'ziga xos usullari va texnologiyalarni yaratishiga olib keladi.

1895-yilda aka-uka Lyumerlar tomonidan dunyoga ilk marta qisqa metrajli film taqdim etilgan, asli poydevorini Edison qo'ygan. Asosan mablag' olib keluvchi tasviriy vosita deb qaralgan, lekin yillar o'tib kino san'at sifatida katta ta'sir doirasini kengaytirdi. 40-yillargacha kino san'atmi yo sanoat, degan tortishuvlar bo'lgan bo'lsa, 40-yillardan keyin uning san'at ekani e'tirof etildi. Kino erkin san'at sohasidir. Kino ma'rifatning o'sishiga olib keladi. Kino orqali insonlar turli jamiyatlar, madaniyatlari, va mamlakatlarning hayotini o'rganish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, jamiyatdagi tajribalar va g'oyalar orqali insonlar orasidagi munosabatlar haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Kino va seriallarning insonlarga

tasirini avvalo o'zimiz filmlardan boshlasak . 2005-yillarda efirga ketgan “Sardor” tele-sereali, insonlarga butun hayoti davomida shug'ullanadigan kasbini topishga katta yordam bergan. Shu yillardagi xarbiy xizmatchilardan suhbat olib borilganda ko'pchiligi shu serial sababli xarbiy xizmatga yozdirganini aytib o'tgan. Undan tashqari 2008-yillarda efirga ketgan “Esmiralda” va “Jumong” seriallari ham jamiyatga katta tasir ko'rsatgan. Meksika seriali tufayli ko'plab insonlar o'z farzandlariga “Esmiralda” ismini qo'yishni boshlagan. “Jumong” seriali tufayli qanchadan qancha bolalar ko'zlarini chiqargan.

Kino nafaqat yoshlarga balki kattalarga ham o'z tasirini ko'rsata oladi. Korealik mashhur rejissor Bong Jun Xoning “Parazitlar” filmi davlatda keskin norozilik bo'lishiga sabab bo'lgan.

Sababi shuki bu filmda jamiyatdagi tabaqalanish, davlat siyosati va uy-joy qurilishidagi muommolar haqida gap boradi. Bu film efirga ketganiga ko'p bo'lmasdan Seul ko'chalarida noroziliklar bo'lib o'tadi. Shundan so'ng Seul mamuriyati har bir oilaga uch yarim million vongacha bo'lgan 1500 ta podvalni ta'mirlash dasturini boshladi. Mablag'lar isitish tizimlarini yaxshilash, pol qoplamalarini almashtirish, ventilyatorlar, oynalar va yong'in signalizatsiyasi davlat tomonidan taminlab berildi. Bundan tashqari ishsizlikni qisqartirish uchun byudjetdan milliardlab pul ajratilgan. Birgina filmning davlat va jamiyatga ko'rsatgan ijobiy tasiri edi. Lekin har doim ham kino va seriallar jamiyatga ijobiy tasir qilavermaydi. Bunga misol qilib Amerika kino ijodkorlari tomonidan ko'pincha so'ratga olinadigan Iroq va Vyetnamdagi voqealarni bir tomonlama ya'ni dengiz orti mamlakati har doim haq qilib ko'rsatiladi. Shunday kinolardan biri bo'lgan “Dovullar hukmdori”dir. Bu filmda Islom dinini yomon Musulmonlarni jangari qilib ko'rsatadi. Bunday filmdan keyin Islom dinidan xabari bo'lmagan insonlar barcha dindorlar yovuz degan fikrlarga olib keladi.

Kino sohasi yuqorida aytib o'tilganidek eng samarali reklama roliki vazifasini ham bajaradi. Bunga misol qilib Netflix tomonidan suratga olingan “Qirolichaning yurishi” serialidir.

Ushbu serial ekran yuzini ko'rgandan keyin dunyo bo'ylab shaxmat to'plamlari sotilishi 4 barobarga oshgan. Shaxmat kitoblari savdosi esa Yevropada 50% ga, Osiyoda 70% gacha ko'tarilib rekord natijani qayd etgan. Buni aynan shu serial bilan bog'lashdi. Serialda bosh qahramon ayol kishi bo'lganligi uchun erkaklarga qaraganda ayollar ko'proq shaxmat saytlaridan ro'yxatdan o'tilgan ekan. Birgina serial dunyo bo'ylab shaxmat industriyasiga kuchli tasir qila oldi. Bunday reklamalar vaqat kino yoki seriallarda emas multfilmlarda ham uchrab turadi.

Pixarning ijod namunalaridan biri bo'lgan “Nemoni izlab” multfilmi bolajonlarning shu multfilmdagi qahramonlar bo'lgan Masxarabos baliqlarning savdosi ortib ketishiga sabab bo'lgan. Professor Karen Burke da Silva boshchiligidagi Finders universiteti tadqiqoti masxarabozlar oilasini uzoq muddatli saqlashga e'tibor qaratgan holda ushbu muommoni hal qilish ustida ishlamoqda.

“Dunyodagi biz kabi dengiz biologlari Nemoni yovvoyi tabiatda yo'qotishimizdan xavotirda. Anemon baliqlar deb ham ataladigan masxaraboz baliqlar yashash joylarini yo'qotishdan aziyat chekmoqda, chunki global isish tufayli marjon riflari kamayib bormoqda.” – deydi professor Burke da Silva. Aslida bu animatsion film marjon baliqlarining akfareumlarda saqlashini yaxshilikka olib kelmasligini ko'rsatgan edi. Animatsion filmlar ham ba'zida prapakanda maqsadida qo'llanilishi mumkin. Disney ishlagan “Mikki Mous Arabistonda” multfilmi hozirgacha ko'plab mamlakatlarda taqiqlangan. Bunga sabab qilib jamiyatning asosiy

dindor qatlami bo'lgan musulmonlarning Islom dinini masxara qilish deb baholangan. Bunday multfilmlarning ba'zilar hattoki Amerikada ham taqiqlab qo'yilgan. Bunga sabab jamiyatda norozolik va tartibsizliklarni keltirib chiqarishning oldini olish uchundir. Bunga yana bir misol 1967-yilda Disney tomonidan suratga olingan "Jungli kitobi" nomli multfilm haligacha jamiyat ichida irqchilik g'oyalarini tatbiq etishda aybdor deb topil moqda.

Kinoning ijtimoiy, siyosiy, madaniy mohiyati mavjud, va ularning jamiyatga tasiri kengroqdir. Ular insonlarning o'ylash, xayol qilish va muomala qilish usullarini o'zgartirishi mumkin. Kino orqali namoyish etiladigan qadriyatlar va ideallar ko'pincha tomoshabinlarning o'z hayotlariga, qarashlariga va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir nafaqat ijobiy, balki salbiy bo'lishi ham mumkin, chunki ayrim filmlar stereotiplar va noto'g'ri tasavvurlarni mustahkamlashi mumkin. Shu sababli, kino yaratish jarayonida ijtimoiy mas'uliyatni unutmaslik muhimdir.

Xulosa: Kino san'at asaridir. Toliqqan vaqt qulay o'tirib o'zingiz yoqtirgan yo'nalishda filmni tanlab mazza qilib dam olish kerak. Albatta buning uchun o'z qarashingiz, mustaqil fikrga ega bo'lgan bo'lishingiz kerak deb hisoblayman. Hamma har xil yo'nalishdagi filmlarga qiziqadi va bo'sh vaqtda ko'rishga harakat qiladi. Nima bo'lganda ham kinolar bizning yurish turishimizga xatti-harakatimizga salbiy tasir qilmasligi zarur.

REFERENCES

1. <https://kun.uz3>
2. <https://www.youtube.com>
3. <https://www.wikipedia.org/>
4. <https://uzpedia.uz/pedia/kinoshunoslik>